

2025-yil 15-oktabr

“O'zkimyosanoat” AJda kiber-gigiyena bo'yicha seminar-trening



Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida kiber-xavfsizlik va kiber-gigiyenaga amal qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan “O'zkimyosanoat” AJda Avtomatlashtirilgan axborot-analitik markazi, jamiyat bo'limlari va tizim korxonalari xodimlari ishtirokida kiber-savodxonlikni oshirishga qaratilgan seminar-trening o'tkazildi.



Tadbirda "Kiberxavfsizlik markazi" DUK mutaxassislari ishtirokida konfidensial ma'lumotlarni himoya qilish, ko'p faktorli autentifikatsiya, fishing va kiber-firibgarlik, messendjer va elektron pochta xavfsizligi, shuningdek, sun'iy intellekt yordamida sodir etilayotgan kiberjinoyatlar kabi dolzarb mavzular muhokama qilindi.





Mazkur tadbir xodimlarning kiber-savodxonligini oshirish hamda axborot xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

“O‘zkiyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-ajda-kiber-gigiyena-bo-yicha-seminar-trening>